



# DAVLAT TEST MARKAZI

*Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O‘QUVCHILARINING  
UMUMTA‘LIM FANLARI BO‘YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN

## TARIX FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

---

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

---

*Imzo*

1–variant

Ushbu test varianti 40 ta (1–40) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

– yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;

– ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;

– moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiy oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (38-, 39-, 40-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[2,4 ball]

**Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.**

O'rta asrlar:

- 1) Angliya – Genrix II;
- 2) Fransiya – Karl VIII;
- 3) Dehli sultonligi – ... ;
- 4) Mali davlati – ... ;
- 5) Songai davlati – ... .

- A) *Shamsiddin Eltutmish, Manelik, Mexmet II*  
 B) *Muhammad Tug'luq, Muso I, Almi*  
 C) *Asparux, Toriq ibn Said, Almi*  
 D) *Muso I, Manelik, Almi*

2.

[2,4 ball]

Quyida tarixiy voqealar keltirilgan.

- 1) "Shimoliy urush"; 2) Germaniyada Reformatsiya jarayonining boshlanishi;
- 3) Angliya burjua inqilobining boshlanishi;
- 4) "Buyuk dehqonlar urushi".

**Ular orasidan ENG KEYIN sodir bo'lgan voqeaning natijasi keltirilgan javobni toping.**

- A) *lyuteranlik oqimi paydo bo'ldi*  
 B) *qirol Yakov II taxtdan mahrum bo'ldi*  
 C) *Rossiya Boltiq dengiziga chiqish huquqiga ega bo'ldi*  
 D) *katoliklar bilan protestantlar o'rtasidagi dushmanlikka barham berildi*

3.

[3,4 ball]

Quyidagilardan boshqalariga nisbatan **ENG AVVAL** (a) va **ENG KEYIN** (b) sodir bo'lganlarini aniqlang.

- 1) Fransiya tomonidan Jazoirning bosib olinishi;
  - 2) Efiopiyada Kassa o'zini imperator deb e'lon qilishi;
  - 3) Liberiya ozod davlatining tuzilishi;
  - 4) Birinchi ingliz-afg'on urushining yakun topishi;
  - 5) "Bobiyar qo'zg'oloni"ning boshlanishi;
  - 6) "Qrim urushi"ning boshlanishi.
- A) a-1, b-5    B) a-1, b-2    C) a-4, b-3  
 D) a-6, b-2

4.

[3,4 ball]

Quyidagilardan boshqalariga nisbatan **ENG AVVAL** (a) va **ENG KEYIN** (b) sodir bo'lganlarini aniqlang.

- 1) Koreya yepiskopligi tuzilganligining e'lon qilinishi;
  - 2) Taypinlar qo'zg'olonining boshlanishi;
  - 3) "Birinchi afyun urushi"ning boshlanishi;
  - 4) Birinchi ingliz-afg'on urushining boshlanishi;
  - 5) "Bobiyar qo'zg'oloni"ning boshlanishi;
  - 6) "Qrim urushi"ning boshlanishi.
- A) a-6, b-3    B) a-1, b-6    C) a-1, b-2  
 D) a-4, b-5

5. [3,4 ball]
- Quyidagilar orasidan **TO‘G‘RI ma‘lumotlar ko‘rsatilgan javobni aniqlang.**
- 1) Xartumga misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlangan yilda Misrda mustaqil mahdiylar davlati tuzildi;
  - 2) Fransiya Marokash ustidan o‘z protektoratini o‘rnatgan yilda “Birinchii Bolqon urushi” boshlandi;
  - 3) Germaniya Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzgan yilda Efiopiya imperatori Kassa sudanliklar foydasini ko‘zlovchi bitimni imzoladi;
  - 4) Argentinada immigratsiya va kolonizatsiya to‘g‘risida qonun qabul qilingan yilda Kubada qullarni ozod qilish haqidagi “Oltin qonun” qabul qilindi;
  - 5) Imperator Vilgelm II “hazrati Iso qabri”ni ziyorat qilish bahonasi bilan Falastinga borgan yilda Braziliya imperatori Pedru II taxtdan voz kechdi;
  - 6) Germaniya imperiyasi reyxstagi umumgerman konstitutsiyasini qabul qilgan yilda Italiyada cherkov va davlat munosabatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi;
  - 7) Buyuk Britaniya mustamlaka hududlari bo‘lgan Transvaal, Oranj, Natal, Kapni “Janubiy Afrika Ittifoqi” nomi ostida birlashtirgan yilda Yaponiya Koreya yarimrolini harbiy kuch bilan o‘ziga qo‘shib oldi.
- A) 1, 3, 4, 6    B) 2, 3, 5, 7    C) 1, 4, 5, 6  
D) 2, 5, 6, 7
6. [3,4 ball]
- 1939-yil Moskvada SSSR va Germaniya o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnoma (Molotov-Ribbentrop pakti) imzolandi.
- Shartnomaga ilova qilingan maxfiy protokolga ko‘ra, qaysi hududlar "SSSR manfaatlari zonasi" deb belgilangan?**
- 1) Finlandiya; 2) Ukraina; 3) Boltiqbo‘yi davlatlari; 4) Belorussiya; 5) Polshaning sharqiy qismi; 6) Kavkaz; 7) Bessarabiya.
- A) 2, 3, 6, 7    B) 1, 3, 5, 7    C) 1, 2, 4, 6  
D) 2, 4, 5, 6
7. [3,4 ball]
- 1940-yil sentabrda Germaniya, Yaponiya va Italiya o‘rtasida harbiy hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv – Uchlar pakti imzolandi.
- Keyinchalik ushbu paktga qo‘shilgan davlatlarni aniqlang.**
- 1) Vengriya; 2) Polsha; 3) Ruminiya;
  - 4) Slovakiya; 5) Belorussiya; 6) Bolgariya;
  - 7) Ukraina; 8) Moldaviya.
- A) 1, 3, 4, 6    B) 2, 4, 7, 8    C) 1, 5, 6, 8  
D) 2, 3, 5, 7
8. [3,4 ball]
- Quyidagilardan qaysilarida **davlat-shaxs-voqea** mosligi **TO‘G‘RI** berilgan?
- 1) SSSR – V.Lenin – sovet-fin urushi yuz berdi;
  - 2) Iroq – Saddam Husayn – Eronga qarshi urush boshladi;
  - 3) AQSh – Franklin Ruzvelt – Lotin Amerikasi davlatlari bilan "yaxshi qo‘shnichilik" munosabatlari o‘rnatishini e‘lon qildi;
  - 4) Fransiya – Margaret Tetcher – mamlakat iqtisodiyotida chuqur tizim o‘zgarishlari yuz berdi, davlat sektori qisqartirildi, uning samaradorligi oshirildi;
  - 5) Kuba – Fidel Kastro – inqilob natijasida hokimiyat tepasiga keldi;
  - 6) Italiya – Migel Primo de Rivera – davlat to‘ntarishi uyushtirib, hokimiyat tepasiga keldi;
  - 7) Turkiya – Mustafo Kamol – Lozanna shartnomasi imzolandi;
  - 8) Yaponiya – Fumimaro Konoe – mamlakatning vazifasi Sharqiy Osiyoda yangi tartib o‘rnatish ekanligini e‘lon qildi.
- A) 1, 4, 5, 6, 8    B) 2, 3, 5, 7, 8  
C) 2, 3, 4, 5, 6    D) 1, 2, 4, 7, 8

9.

[3,4 ball]

Quyidagi tarixiy voqea (ma'lumot) larning xronologik ketma-ketligi **TO'G'RI ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

- 1) Turkiya (Usmonli davlati)da konstitutsiya e'lon qilindi. Unga ko'ra, mamlakatda ikki palatali parlament joriy etildi;
  - 2) Turkiston general-gubernatorligida "Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom" e'lon qilindi;
  - 3) Orenburgdan Toshkentga qadar temiryo'l qurildi;
  - 4) Sudanda mustaqil mahdiylar davlati tuzildi;
  - 5) Mingtepada (hozirgi Marhamat tumani) mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi;
  - 6) Toshkentda "Vabo isyoni" deb nom olgan qo'zg'olon boshlandi.
- A) 1, 5, 2, 4, 6, 3    B) 4, 6, 3, 1, 5, 2  
C) 2, 4, 6, 3, 1, 5    D) 5, 2, 4, 1, 6, 3

10.

[3,4 ball]

Quyida berilgan atamalarni ularning izohi bilan **TO'G'RI moslashtiring.**

Atamalar	Izohi
1) direktiva	a) yuqori tashkilotning unga bo'ysunuvchi tashkilotlarga beradigan ko'rsatmasi, bajarilishi lozim bo'lgan hujjat;
2) liberalizm	b) qarorlar qabul qilish bo'yicha vakolat va majburiyatlarni markazdan boshqa tashkilotlarga o'tkazish;
3) manifest	c) hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojaati;
4) detsentralizatsiya	d) biron bir davlatning xalqaro muammolarni hal qilishda ishtirok etishdan bosh tortish siyosati;
	e) parlamentarizm, demokratik erkinliklar va xususiy tadbirkorlik tarafdorlarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy oqim;
	f) xalqaro huquqda ittifoqchi davlatlarning biri tomonidan ittifoqchilar ruxsatisiz va ular bilan kelishmay turib, urushayotgan dushman davlat bilan tuzilgan bitim

- A) 1-b, 2-d, 3-c, 4-f  
B) 1-a, 2-e, 3-c, 4-b  
C) 1-a, 2-d, 3-f, 4-b  
D) 1-d, 2-e, 3-b, 4-f

11.

[3,4 ball]

Quyida berilgan ma'lumotlarni o'qing.

**I.** *U 1880-1901-yillarda Afg'oniston amiri bo'lgan. Mamlakatda yopiq siyosat yuritdi. Mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish uchun kurash olib bordi. Diniy ulamolarni o'z tarafida tutish uchun ularga maosh belgiladi. Vaqf mulkini esa qisman davlatga o'tkazdi.*

**II.** *1905-yilda Tunminxay degan siyosiy tashkilot tuzdi. Tashkilot uning rahbarligida qabul qilgan dasturda Sin monarxiyasini ag'darish, Respublika ta'sis etish, yerga egalik huquqini tenglashtirish va mustaqillikni tiklash ko'zda tutilgan edi. U ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust taraqqiy etgan Xitoyda yerga egalik huquqini tenglashtirish yo'li bilan ijtimoiy adolatli tuzum yaratish mumkin, degan fikrda edi.*

**III.** *Berlin kongressidan keyin Rossiya imperatori Aleksandr II uni Bolgariya davlati boshlig'i etib saylashni taklif qildi. Biroq u Rossiyadan mustaqil siyosat yuritish maqsadida G'arb davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini yurita boshladi. Uning asl niyati – Bolgariya armiyasida xizmat qilayotgan rus zobitlarini nemis zobitlari bilan almashtirishda yaqqol namoyon bo'ldi.*

**Ushbu ma'lumotlar qaysi tarixiy shaxslar haqida ekanligini aniqlang.**

- A) I – Sheralixon, II – Chan Kayshi,  
III – Aleksandr Battenberg
- B) I – Yoqubxon, II – Yuan Shikay,  
III – Xristo Botev
- C) I – Abdurahmon, II – Sun Yat Sen,  
III – Aleksandr Battenberg
- D) I – Habibulloxon, II – Yuan Shikay,  
III – Ferdinand Koburg

12.

[2,4 ball]

Quyidagilardan Turk xoqonligi tarixiga oid **TO'G'RI ma'lumotlarni aniqlang.**

1) Eftallar davlati tamomila barbod bo'lgach, Amudaryoning o'ng sohillari bo'ylab Kaspiy dengizigacha cho'zilgan yerlarni o'z tasarrufiga olgan; 2) Eftallar davlati qulagach, Amudaryodan to Suriyaga qadar Ipak yo'li ustidan o'z nazoratini o'rnatgan; 3) 484-yilda bu davlatga qarshi bo'lgan urush sostoniyalar shohi Pero'zning halokati bilan yakunlangan; 4) VI asrning 80-yillari oxirlarida ikkiga bo'linib ketgan; 5) Eftallar davlati qulagach, Uzoq Sharqdan Eron hududlarigacha karvon yo'li ustidan nazorat turklarning homiyligi ostiga o'tgan; 6) davlatning ko'chmanchi chorvador aholisi "budun" yoki "qora budun" nomlari bilan yuritilgan.

- A) 1, 2, 3, 5    B) 2, 3, 4, 6    C) 1, 4, 5, 6  
D) 2, 4, 5, 6

13.

[2,4 ball]

1512-yilda Gijduvonda shayboniylar bilan safaviylar o'rtasidagi hal qiluvchi jangda **shayboniylar qo'shiniga qo'mondonlik qilgan shaxslarni aniqlang.**

- 1) Abdullaxon II; 2) Ubaydulla Sulton;  
3) Muhammad Temur; 4) Sulton Ahmad;  
5) Abu Said Sulton; 6) Umarshayx.
- A) 2, 3, 5    B) 1, 3, 4    C) 2, 4, 6    D) 1, 5, 6

14.

[3,4 ball]

Ma'lumki, Abu Said Mirzo vafotidan so'ng Movarounnahr uning o'g'illari hukmdor bo'lgan amalda uch mustaqil davlatga bo'linib ketdi.

**Abu Said Mirzoning o'g'illari hukmronlik qilgan hududlar mos ravishda ko'rsatilgan javobni belgilang.**

- 1) Sulton Ahmad; 2) Umarshayx Mirzo;  
3) Sulton Mahmud Mirzo.  
a) Buxoro; b) Samarqand; c) Hisor;  
d) Farg'ona; e) Xuttalon; f) Badaxshon;  
g) Toshkent.
- A) 1-c, 2-f, 3-a, d, e    B) 1- a, 2-b, 3-c, f, g  
C) 1-b, 2-d, 3- c, e, f    D) 1-a, 2-f, 3-b, d, g

15. [2,4 ball]

Quyida berilgan ma'lumotlarni o'qing.

**I.** Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olingan hududlari hisobiga Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Zarafshon okrugi, Farg'ona va Kaspiyorti viloyatlari tashkil etildi;

**II.** Fon Kaufman Qo'qon xonligi chegara hududlarini puxta o'rganib chiqib, Amir Muzaffarga chegaraning Buyuk Britaniya mulki foydasiga o'zgartirilgan yangi loyahasini tasdiqlashni taklif qildi;

**III.** Rossiya imperiyasi Buxoro bilan 1868-yilda Xiva xonligiga o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi yangi shartnomani imzoladi;

**IV.** XIX asr oxirida jadidchilik g'oyalarning keng yoyilishida "Taraqqiy" gazetasi muhim o'rin tutdi;

**V.** Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tgan Amudaryoning o'ng qirg'og'i hududida Turkiston general-gubernatorligining Amudaryo bo'limi tashkil qilindi.

**Ushbu ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.**

- A) *I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri; IV-noto'g'ri; V-to'g'ri*
- B) *I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri; IV-to'g'ri; V-noto'g'ri*
- C) *I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri; IV-noto'g'ri; V-to'g'ri*
- D) *I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri; IV-to'g'ri; V-noto'g'ri*

16. [3,4 ball]

Buxoro amirlari Muzaffar (a) va Nasrullo (b) **hukmronligi davriga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlang.**

1) Fayzulla Xo'jayev rahbarligida «Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi»ning tuzilishi; 2) Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligining e'lon qilinishi; 3) Baljuvon bekligida Vose qo'zg'olonining boshlanishi; 4) Ahmad Donish amir elchilari bilan 1857-yilda Moskva, Peterburg va boshqa Rossiya shaharlarida bo'lishi; 5) Aleksandr Byorns boshchiligidagi ingliz missiyasining Buxoroga tashrif buyurishi; 6) Cho'ponota tepaligi va Zirabuloqdagi janglarda Buxoro amirligi qo'shinlarining rus qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchrashi; 7) Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari Ch.Stoddart va A.Konnolining amir tomonidan qatl qilinishi; 8) Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi.

- A) *a-3, 6, 8; b-4, 5, 7*    B) *a-1, 2, 5; b-6, 7, 8*  
C) *a-3, 6, 7; b-4, 5, 8*    D) *a-1, 2, 8; b-3, 4, 7*

17. [2,4 ball]

1917-yil 7-aprelda Muvaqqat hukumat tomonidan Turkiston o'lkasini boshqarish uchun tuzilgan Turkiston komiteti tarkibiga kiritilgan turkiy xalqlar vakillari **TO'G'RI ko'rsatilgan javobni toping.**

1) Muhammadjon Tinishboyev; 2) Mirkomil Mirsharopov; 3) Alixon Bukeyxonov; 4) Abdul Aziz Davlatshin; 5) Is'hoqxo'ja Xo'jayev; 6) Qalandar Odinayev.

- A) *1, 5, 6*    B) *2, 4, 6*    C) *2, 3, 5*    D) *1, 3, 4*

18. [3,4 ball]

1923-yil tashqi kuchlar tazyiqi bilan Fayzulla Xo'jayevning yaqin safdoshlari bo'lgan quyidagi shaxslardan **kimlar Buxoro hukumati nozirlari tarkibidan chiqarilgan?**

1) Otaulla Xo'jayev; 2) Qo'shmamedxon Sapiyev; 3) Sattor Xo'jayev; 4) Muinjon Aminov; 5) G'ulomalixon Bahodir; 6) Qori Yo'ldosh Po'latov; 7) Is'hoqxo'ja Xo'jayev.

- A) *1, 3, 4, 6*    B) *2, 3, 5, 6*    C) *1, 4, 5, 7*  
D) *2, 4, 6, 7*

19.

[3,4 ball]

Mustaqil O'zbekiston tarixi bilan bog'liq  
**TO'G'RI ma'lumotlarni aniqlang.**

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi;
  - 2) O'zbekiston Respublikasining "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi" da O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etadi degan qoida belgilab qo'yilgan;
  - 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini ilgari surdi;
  - 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyevni "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlagan;
  - 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti ta'asis etildi;
  - 6) O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP) 1991-yildan 2021-yilga qadar barcha Prezident saylovlarida hamda parlament saylovlarida ishtirok etib, parlamentda o'z fraksiyasini tashkil etishga erishdi;
  - 7) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101-moddasiga ko'ra hokimlarning vakolat muddati – 5 yil.
- A) 1, 3, 4, 7    B) 2, 3, 6, 7    C) 1, 4, 5, 6  
D) 2, 4, 5, 7

20.

[2,4 ball]

XIX asrning oxirida AQSh iqtisodiy taraqqiyotining nihoyatda tezlashuviga **sabab bo'lgan omillarni aniqlang.**

- 1) fuqarolar urushidan keyin yagona ichki bozorning vujudga kelganligi; 2) mamlakatning "Marshall rejasi" doirasida olgan moliyaviy yordami; 3) qulchilikning tugatilishi, quldorlik latifundiyalarining bekor qilinishi;
  - 4) mamlakatda unumdor yerlarning, foydali qazilma boyliklarining ko'pligi; 5) Tinch okean markazidagi Mariana, Marshall va Karolina orollarining bosib olinishi; 6) Amerika xalqining tadbirkorligi.
- A) 1, 3, 4, 6    B) 2, 4, 5, 6    C) 2, 3, 4, 5  
D) 1, 3, 5, 6

21.

[2,4 ball]


Somoniylar davlatida kumush tangalar faqat hukumat boshlig'i nomidan **qaysi hududlardagi zarbxonalarda so'qilgan?**

- 1) Marv; 2) Qarshi; 3) Eloq; 4) Samarqand;
  - 5) Termiz; 6) Shosh.
- A) 1, 3, 5    B) 1, 4, 6    C) 2, 4, 5    D) 2, 3, 6

22.

[2,4 ball]

Quyidagi grafikda qaysi raqamlar ostida asar va uning muallifi **bir-biriga muvofiq keladi**?



- A) 2, 4, 6, 8  
 B) 1, 3, 5, 7  
 C) 1, 4, 6, 8  
 D) 2, 3, 5, 7

23.

[2,4 ball]

Quyida keltirilgan mualliflarni ularning yozgan asarlari bilan **moslashtiring**.

1. Genrix Mann	a) "Sodiq fuqaro"
2. Gi de Mopassan	b) "Girdob"
3. Bernard Shou	c) "Mont-Oriol"
	d) "Qurol va inson"
	e) "Olovli ustun"
	f) "Hayotga muhabbat"


- A) 1-b, 2-d, 3-e    B) 1-a, 2-c, 3-d  
 C) 1-a, 2-f, 3-c    D) 1-e, 2-f, 3-b

24.

[3,4 ball]

Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan **TO'G'RI javobni toping**.

**XIX asr II yarmi – XX asr boshlari**



- a) mamlakatda fuqarolar urushi bo'lib o'tdi;  
 b) yerni mayda bo'laklarga bo'linib ketishiga qarshi qonun chiqarildi; c) qullik bekor qilindi;  
 d) "Gomstedlar to'g'risida" qonun qabul qilindi;  
 e) mamlakatda yagona pul birligi – iyena joriy etildi; f) Xitoyning Szyaochjouvan bandargohini bosib oldi; g) 10 yillik qurollanish dasturini qabul qildi; h) Tinch okeanidagi Gavayi orollarini bosib oldi; i) Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi;  
 j) Panamada Kolumbiyaga qarshi isyon tashkil etib, u yerda "qo'g'irchoq" hukumat tuzdi.

- A) I-d, f, h, g; II-a, b, c, e; III-i  
 B) I-a, c, j, f; II-d, e, h, i; III-b  
 C) I-b, d, f, j; II-c, e, g, i; III-a  
 D) I-c, d, h, j; II-b, e, g, i; III-a



25. [1,3 ball]  
O'rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilib ko'rgan dastlabki fors podshosi bo'lgan **hukmdor nomini yozing.**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga yozing.
26. [1,3 ball]  
Doro I hukmronligining birinchi yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni yuz bergan. Ushbu qo'zg'olon **rahbarining nomini yozing.**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga yozing.
27. [1,3 ball]  
1907-yil Rossiya 1904-yilda Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoqqa qo'shildi. Shu tariqa ... ittifoqi vujudga keldi.  
**Nuqtalar o'rniga mos keluvchi harbiy ittifoq nomini yozing.**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga yozing.
28. [1,3 ball]  
O'ttiz yillik urush (1618-1648-yy.) natijasiga ko'ra, Yevropada siyosiy gegemonlik **qaysi davlat qo'liga o'tdi?** (davlat nomini yozing)  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga yozing.
29. [1,3 ball]  
1994-yil may oyida ochilgan La-Mansh bo'g'ozini ostidan o'tgan temiryo'l tonneli (Yevrotonnel)ni Fransiya **qaysi davlat bilan hamkorlikda qurgan?** (davlat nomini yozing)  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
30. [1,3 ball]  
Jaloliddin Manguberdiga qarshi muxolif kuchlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan **Ko'niya sultoni nomini yozing.**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
31. [1,3 ball]  
O'rta asrlarda O'rta Osiyoda shaharlar uch qismdan iborat bo'lgan: shaharning hokim qasri joylashgan qismi, shaharning tashqi mavzesi va shaharning ichki qismi.  
**Shaharning ichki qismi nomini yozing.**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
32. [1,3 ball]  
Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviy boshqaruvi davrida mamlakatda islohotlar o'tkazildi.  
**Ushbu islohotlar umumiy nom bilan qanday atalganligini yozing.**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
33. [1,3 ball]  
Mesopotamiyaning qadimiy ibodatxonalarini ... lar xom g'ishtdan terib chiqilgan muhtasham zinapoyali inshoot bo'lgan.  
**Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zni yozing.**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
34. [1,3 ball]  
Muqaddas Rim imperiyasi imperatori Fridrix II tomonidan **Italiyadagi qaysi universitetga asos solingan?**  
Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

35.

[2,4 ball]

Tarixiy voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	1279-yilda mo'g'ullar tomonidan Xitoyning bosib olinishi	Xitoyda Yuan sulolasiga asos solinishi
2.	Shimoliy Amerikada burjua inqilobi (XVIII asrning ikkinchi yarmi)	Shimoliy Amerika (AQSh) da respublika tuzumining o'rnatilishi
3.	Ubaydullaxonning 1537-1538-yillarda Xorazmga hujumi	Xiva xonligining Buxoro xonligiga bo'ysundirilishi
4.	Sinxay inqilobi	Xitoyda Min sulolasining ag'darilishi
5.	1936-yida Ispaniyada fuqarolar urushining boshlanishi	Ispaniyada Adolf Gitler diktaturasining o'rnatilishi
6.	SSSRda Favqulodda holat davlat komiteti (GKChP) ning tuzilishi	Sovet Ittifoqining parchalanishi
7.	1899-1902-yillardagi ingliz-bur urushi	Transvaal va Oranjning Britaniya mulklariga qo'shib olinishi

A) 1, 2, 3, 6, 7

B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 1, 3, 4, 5, 7

D) 2, 4, 5, 6, 7

36.

[3,4 ball]

Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma'lumotlardan (1-19) moslarini qo'ying.

Asr	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
a	b	Sechjon Buyuk hukmronligining boshlanishi
XIV	c	d
e	Xiva xonligi (Xorazm) poytaxtining Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chirilishi	f
g	h	Yaponiyada Tokugava sulolasi hukmronligining barham topishi
XVIII	i	j
k	Rossiya elchisi I.D.Xoxlovning Buxoro xonligiga tashrif buyurishi	l

Ma'lumotlar: 1) Movarounnahrda sarbadorlar harakatining vujudga kelishi; 2) XV asr; 3) Mirzo Ulug'bek hukmronligining yakun topishi; 4) Angliyada «Qizil va oq gullar» urushi; 5) Xiva xonligiga A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida ekspeditsiyaning uyushtirilishi; 6) XVI asr; 7) Fransiyada qirol Filipp IV hukmronligining tugashi; 8) Xorazmda Arabshohiylar sulolasining hokimiyatga kelishi; 9) XIII asr; 10) Rus-yapon urushining boshlanishi; 11) XIX asr; 12) Shimoliy Xitoyda dastlabki temiryo'lning ishga tushirilishi; 13) portugaliyalik dengizchi Fernando Magellan ekspeditsiyasining boshlanishi; 14) XX asr; 15) Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining boshlanishi; 16) Afg'oniston davlatining tashkil topishi; 17) XVII asr; 18) Qo'qon xonligining tugatilishi; 19) Angliyada Karl II ning taxtga kelishi

A) a-2, b-3, c-1, d-7, e-6, f-13, g-11, h-18, i-5, j-16, k-17, l-19

B) a-6, b-3, c-1, d-4, e-6, f-12, g-14, h-8, i-15, j-10, k-17, l-19


C) a-2, b-4, c-1, d-7, e-17, f-19, g-14, h-8, i-5, j-16, k-6, l-13

D) a-9, b-1, c-3, d-4, e-6, f-12, g-11, h-18, i-15, j-16, k-17, l-19

37.

[2,4 ball]

Xaritada yulduzcha ostida berilgan davlat (hudud) tarixiga oid ma'lumotlarni toping.



1) Dias diktaturasi davri mamlakatni chet el monopoliyalarining yarimmustamlakasiga aylantirish davri bo'ldi; 2) XIX asr oxirida Xose Marti va Maksimo Gomeslar boshchiligida ispanlarga qarshi qo'zg'olon yuz berdi; 3) XVI asr boshida Ispaniya tomonidan bosib olingan; 4) XX asr boshida E.Sapata va F.Vilya boshchiligida dehqonlar harakati yuz berdi; 5) 1959-yil 1-yanvarda mamlakatda inqilob g'alaba qozondi; 6) 1930-yili Ipolito Irigoyenning ikkinchi hukumati ag'darib tashlandi.

- A) 2, 4, 6
- B) 1, 3, 6
- C) 1, 4, 5
- D) 2, 3, 5

**38-40.**

Javob variantlaridan (A-F) foydalanib, 38-40-topshiriqlarni bajaring.

Topshiriqlar	Javoblar
<p><b>38.</b> [2,4 ball] Qaysi hujjat (sulh, bitim, shartnoma) ga ko'ra Kipr oroli Buyuk Britaniyaga berildi?</p>	<p>A) San-Stefano shartnomasi. B) Frankfurt sulhi.</p>
<p><b>39.</b> [2,4 ball] Qaysi hujjat (sulh, bitim, shartnoma) ga ko'ra, Rossiya Boltiq dengiziga chiqish huquqiga ega bo'ldi?</p>	<p>C) "Berlin traktati". D) Vestfal tinchlik sulhi.</p>
<p><b>40.</b> [2,4 ball] Qaysi hujjat (sulh, bitim, shartnoma) Yevropada katoliklar bilan protestantlar o'rtasidagi dushmanlikka barham berdi?</p>	<p>E) Nishtadt shartnomasi. F) Gandamak bitimi.</p>